O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar

(FFV-59:2017, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #72GU4ED16Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 28-iyuldagi 27/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FVV-59:2017 “Root and tubercle vegetables” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasman tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #72GU4ED16Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulot yetishtirishni rag‘batlantiradi, rentabellikni oshiradi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YIK standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini, jumladan, yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng huquqlilik asosida ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha batafsil ma’lumot olish uchun, iltimos, www.unece.org/trade/agr veb-saytimizga tashrif buyuring.

Ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlarga doir ushbu standart Ishchi guruhning oltmish oltinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/TRADE/C/WP.7/2010/7 hujjatiga asoslangan.

Standart maketga (2017-yil) muvofiqlashtirilgan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarning biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #72GU4ED16Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

ILDIZMEVALAR VA TUGUNAKMEVALI SABZAVOTLAR

КОРНЕПЛОДЫ И КЛУБНЕПЛОДЫ

ROOT AND TUBERCLE VEGETABLES

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026

I Mahsulotni belgilash

Ushbu standart sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlardan tashqari, iste’molchiga yangi holatda yetkazib beriladigan, quyidagi turlardan yetishtirilgan navli (kultivar) ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlarga tatbiq etiladi:

— osh lavlagi (Beta vulgaris L. subsp. vulgaris Conditiva Group)
— ildizli selderey (Apium graveolens var. rapaceum (Mill.) Gaudin)
— ildizli petrushka (Petroselinum crispum var. tuberosum (Bernh.) Mart. Crov.)
— yerqalampir (Armoracia rusticana G. Gaertn., B. Mey. et Scherb.)
— kalrabi, karamrabi (Brassica olearacea var. gongylodes L.)
— pasternak (Pastinaca sativa L. subsp. sativa)
— qizil turp, redis (Raphanus sativus L. Radicula Group)
— turp (Raphanus sativus Chinensis Group va Longipinnatus Group)
— oq sersof, sersof ildiz (Tragopogon porrifolius L. subsp. porrifolius)
— skorzonera, qora ildiz (Scorzonera hispanica L.)
— bryukva (Brassica napus L. Napobrassica Group)
— sholg‘om (Brassica rapa L. Rapa Group)
— tugunakli buten (Chaerophyllum bulbosum L.)
— ildizli sikoriy (Cichorium intybus L. Sativum Group)

II Sifatga oid qoidalar

Standartdan ko‘zlangan maqsad tayyorlash va qadoqlash bosqichlaridan keyingi ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlarning sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Biroq, eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlar standart talablariga nisbatan quyidagilarni namoyon qilishi mumkin:

— yangilik va taranglikning biroz yetishmasligi;
— mahsulotning rivojlanishi va tez buzilishga moyilligi sababli sifatining biroz yomonlashishi;

Mahsulot egasi/sotuvchisi ushbu mahsulotlarni standartga muvofiq bo‘lmagan har qanday tarzda namoyish qilishi, sotuvga taklif etishi, yetkazib berishi yoki realizatsiya qilishi mumkin emas. Mahsulot egasi/sotuvchisi ushbu muvofiqlikning ta’minlanishi uchun javobgardir.

STANDARTLAR INSTITUTI #72GU4ED16Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

A. Minimal talablar

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun maxsus qoidalar va ruxsat etilgan me’yoriy chetlanishlarni hisobga olgan holda, ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar quyidagicha bo‘lishi kerak:

— butun; muayyan mahsulot uchun xos bo‘lgan, uchi va/yoki yon ildizlari bo‘lmagan ko‘rinish, agar kesilgan joyi toza bo‘lsa, nuqson deb hisoblanmaydi; har qanday holatda singan ildizlar mustasno

— sog‘lom; iste’molga yaroqsiz qilib qo‘yadigan darajada chirigan yoki sifati buzilgan mahsulotlar mustasno

— toza, bu shuni anglatadiki, ular:

— yuvilgan ildizmevalar holatida, har qanday ko‘rinadigan yot moddalardan deyarli xoli;

— yuvilmagan ildizmevalar holatida, jiddiy kir va aralashmalardan deyarli xoli;

— zararkunandalardan deyarli xoli

— zararkunandalar yetkazgan shikastlardan deyarli xoli

— ko‘rinishi yangi va tarang

— mag‘zi tusining o‘zgarmaganligi, masalan, kulrang yoki qora yo‘llar bo‘lmasligi

— tarmoqlanmagan

— ikkilamchi ildiz o‘simtalaridan xoli

— ichi g‘ovak bo‘lmagan

— yog‘ochlashmagan, tolali yoki g‘ovak bo‘lmagan

— ortiqcha tashqi namlikdan xoli

— yot hid va ta’mdan xoli

Mahsulot barglari bilan birga taqdim etilganda, barglar sog‘lom, yangi va toza bo‘lishi kerak.

Mahsulot barglarsiz taqdim etilganda, barglar ildizmevaning yuqori qismidan tekis kesilgan bo‘lishi kerak.

Ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlarning rivojlanishi va holati quyidagilarni ta’minlay oladigan darajada bo‘lishi kerak:

— tashish jo‘natish ishlariga bardosh bera olishi

— belgilangan joyga qoniqarli holatda yetib borishi

B. Tasniflash

Ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar quyida belgilanganidek ikki sinfga tasniflanadi:

(i) I sinf

Ushbu sinfdagi ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular nav yoki tijorat turi uchun odatiy bo‘lishi kerak.

Ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar yaxshi shakllangan bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #72GU4ED16Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Biroq, mahsulotning umumiy ko‘rinishi, sifati, saqlanuvchanligi va qadoqdagi tovar ko‘rinishiga ta’sir etmaslik sharti bilan quyidagi biroz nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

— shakldagi biroz nuqson

— po‘stining rangidagi biroz nuqsonlar

— odatiy tozalash (shilish) orqali bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan biroz ezilgan va shikastlangan joylar

— po‘stning biroz nuqsonlari, shu jumladan biroz yoriqlar.

Mahsulot barglari bilan birga taqdim etilganda, barglari biroz shikastlangan bo‘lishi mumkin.

(ii) II sinf

Ushbu sinfga I sinfga kiritilish talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga muvofiq keladigan ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar kiradi.

Ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar sifati, saqlanuvchanligi va tovar ko‘rinishiga doir o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi sharti bilan, quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

— shakldagi nuqsonlar

— po‘stining rangidagi nuqsonlar

— odatiy tozalash (shilish) orqali bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan yuzaki zanglash shikastlari

— biroz ezilgan va shikastlangan joylar

— mag‘zigacha yetib bormagan, кольраби (karamning bir turi) holatida esa chuqurligi 1 sm dan oshmaydigan bitgan yoriqlar

— bitta tarmoqlanish (ikkita uchi borligi)

Mahsulot barglari bilan birga taqdim etilganda, barglari shikastlangan bo‘lishi mumkin, biroq mahsulotga ta’sir etuvchi progresiv nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak.

III. O‘lchamlarga doir qoidalar

Ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar uchun o‘lcham talablari belgilanmagan.

IV. Yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlarga doir qoidalar

Sotishning barcha bosqichlarida ko‘rsatilgan sinf talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir turkumda sifat bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlarga ruxsat beriladi.

Sifat bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar

(i) I sinf

Ushbu sinf talablariga javob bermaydigan, biroq II sinf talablariga muvofiq keladigan ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlarning soni yoki vazni bo‘yicha jami 10 foizgacha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishga ruxsat beriladi. Ushbu chetlanish doirasida jami 1 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorni II sinf sifati talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan

STANDARTLAR INSTITUTI #72GU4ED16Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

mahsulotlar yoki chirish natijasida zararlangan mahsulotlar tashkil etishi mumkin. Bundan tashqari, vazni bo‘yicha qo‘shimcha 10 foizgacha singan ildizmevalarga yo‘l qo‘yiladi.

(ii) II sinf

Ushbu sinf talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlarning soni yoki vazni bo‘yicha jami 10 foizgacha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishga ruxsat beriladi. Ushbu chetlanish doirasida jami 2 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorni chirish natijasida zararlangan mahsulotlar tashkil etishi mumkin. Bundan tashqari, vazni bo‘yicha qo‘shimcha 25 foizgacha singan ildizmevalarga yo‘l qo‘yiladi.

V. Tovar ko‘rinishiga doir qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning ichidagilari bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqishga, navga yoki tijorat turiga va sifatga ega bo‘lgan ildizmevalar yoki tugunakmevali sabzavotlardan iborat bo‘lishi kerak.

I sinfdagi ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar shakli hamda rangiga ko‘ra bir xil bo‘lishi lozim.

Bog‘lam holatida taqdim etilganda, bitta qadoq ichidagi har bir bog‘lamdagi ildizmevalar soni bir xil bo‘lishi kerak.

Biroq, sifati hamda tegishli ravishda har bir tur va/voki rang bo‘yicha kelib chiqishi bir xil bo‘lishi sharti bilan, yaqqol farq qiluvchi turdagi va/voki bir xil turning har xil rangidagi ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar aralashmasi bitta savdo qadog‘iga birgalikda joylashtirilishi mumkin.

Qadoq ichidagi mahsulotning ko‘rinib turgan qismi uning butun tarkibiga mos bo‘lishi kerak.

B. Qadoqlash

Ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar mahsulotning tegishli darajada himoya qilinishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar toza hamda mahsulotga har qanday tashqi yoki ichki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi lozim. Savdo tavsiflari tushirilgan materiallardan, xususan, qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi, basharti matn chop etish yoki yorliqlash zararsiz siyoh yoxud yelim yordamida bajarilgan bo‘lsa.

Mahsulotga yakka tartibda yopishtiriladigan yorliqlar shunday bo‘lishi kerakki, ular olib tashlanganda o‘zidan yelimning ko‘rinib turadigan izlarini qoldirmasligi va po‘stining nuqsonlariga olib kelmasligi lozim.

Qadoqlar har qanday yot moddalardan xoli bo‘lishi kerak.

VI. Tamg‘alashga doir qoidalar

STANDARTLAR INSTITUTI #72GU4ED16Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Har bir qadoqning[1] bir tomonida guruhlangan holda tashqi tomondan yaqqol ko‘rinib turadigan, tushunarli va o‘chmaydigan tarzda yozilgan quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

A. Identifikatsiya qilish

Qadoqlovchi va jo‘natuvchi/eksport qiluvchi: Nomi va manzili (masalan, ko‘cha/shahar/viloyat/pochta indeksi va kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki, agar bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMT REK (UNECE) ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bo‘lsa, milliy hokimiyat organi tomonidan rasman tan olingan kodli belgi[2].

_____

[1] Ushbu tamg‘alash qoidalari idishlar ichida joylashtirilgan savdo qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq ular yakka tartibda taqdim etiladigan savdo qadoqlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) nisbatan qo‘llaniladi.

[2] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nomi va manzilining aniq ko‘rsatilishini talab qiladi. Biroq, kodli belgi ishlatilgan hollarda, «qadoqlovchi va/voki jo‘natuvchi (yoki ularga tenglashtirilgan qisqartmalar)» degan havola kodli belgi bilan bevosita bog‘liq holda ko‘rsatilishi kerak hamda, agar kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kodli belgidan oldin uni tan olgan mamlakatning ISO 3166 (alfa) bo‘yicha mamlakat/hudud kodi keltirilishi lozim.

B. Mahsulotning turi

— «Qizilcha (lavlagi)», «Ildizli selderey», «Ildizli petrushka», «Garrich (xren)», «Kolrabi», «Pasternak», «Turp (rediska)», «Eshakmiya (salsifi)», «Skorsonera», «Bryukva», «Sholg‘om», «Tugunakli kervel», «Ildizli tsikori» yoki qadoq ichidagi mahsulot tashqi tomondan ko‘rinmaydigan bo‘lsa, uning sinonim nomi

— Tegishli hollarda va qadoq ichidagi mahsulot tashqi tomondan ko‘rinmaydigan bo‘lsa, «Barglari bilan»

— Yaqqol farq qiluvchi turdagi yoki bir xil turning har xil rangidagi ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, «Ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar aralashmasi» yoki unga tenglashtirilgan nom. Agar mahsulot tashqi tomondan ko‘rinmaydigan bo‘lsa, qadoqdagi har bir turi va rangi hamda ularning miqdori ko‘rsatib o‘tilishi kerak.

B. Mahsulotning kelib chiqishi

— Kelib chiqqan mamlakati[3], ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan hududi yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy joy nomi.

— Har xil kelib chiqishga ega bo‘lgan, yaqqol farq qiluvchi turdagi va har xil rangdagi ildizmevalar va tugunakmevali sabzavotlar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, har bir kelib chiqqan mamlakatning nomi tegishli tur va rang nomining yonida ko‘rsatilishi kerak.

D. Tijorat tavsiflari

— Sinf

— Tegishli hollarda, bog‘lamlar yoki savdo qadoqlari soni.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

STANDARTLAR INSTITUTI #72GU4ED16Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

2010-yilda qabul qilingan
2017-yildagi Standart maketga muvofiqlashtirilgan

_____

[3] To‘liq yoki keng qo‘llaniladigan (odatiy) nomi ko‘rsatib o‘tilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #72GU4ED16Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI